



O‘QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS

USULLARI

Abduvaliyeva Gulchexra Mamadjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Mustaqil tadqiqotchisi

Elektron pochta: gulchexraabduvaliyova@gmail.com

Annotatsiya: O‘qish samaradorligini oshirishning o‘ziga xos usullari mavzusidagi maqolada, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlarini yaxshilash uchun zamonaviy va innovatsion strategiyalar ko‘rib chiqiladi. Ushbu maqolada, o‘qishning asosiy tamoyillari, motivatsiya, vaqtni boshqarish, o‘qish uslublari va faol o‘qish metodlari kabi muhim jihatlar ta’kidlanadi. Shuningdek, maqolada o‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun interaktiv va ko‘ngilochar metodlarning roli ko‘rsatiladi. Natijada, bu usullar o‘quvchilarga ma’lumotlarni yanada chuqurroq va samarali qabul qilish imkonini beradi. Maqola, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun amaliy tavsiyalar berib, o‘qish jarayonini yaxshilashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Interaktiv , Multimedia , Feedback, Simulyatsiya , Virtual , Modelitet , Akademik , Disleksiya.

UNIQUE METHODS FOR IMPROVING READING EFFICIENCY

Abduvaliyeva Gulchexra Mamadjon qizi

Namangan State Pedagogical Institute

Independent Researcher

Email: gulchexraabduvaliyova@gmail.com

Annotation: This article on unique methods for improving reading efficiency explores modern and innovative strategies to enhance students' reading abilities within the educational process. It highlights key aspects such as the fundamental principles of reading, motivation, time management, reading styles, and active reading methods. Additionally, the article illustrates the role of interactive and engaging methods in increasing students' interest. As a result, these methods enable students to absorb information more deeply and effectively. The article provides practical recommendations for both teachers and students to improve the reading process.

Keywords: Interactive, Multimedia, Feedback, Simulation, Virtual, Modality, Academic, Dyslexia.



УНИКАЛЬНЫЕ МЕТОДЫ УВЕЛИЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЧТЕНИЯ

Абдувалиева Гульчехра Мамаджоновна
Наманганский государственный педагогический институт
Независимый исследователь

Электронная почта: gulchehraabduvaliyova@gmail.com

Аннотация: В статье на тему уникальных методов повышения эффективности чтения рассматриваются современные и инновационные стратегии улучшения читательских навыков учащихся в процессе обучения. В статье подчеркиваются важные аспекты, такие как основные принципы чтения, мотивация, управление временем, стили чтения и методы активного чтения. Кроме того, в статье показана роль интерактивных и развлекательных методов в повышении интереса учащихся. В результате эти методы позволяют учащимся усваивать информацию более глубоко и эффективно. Статья предоставляет практические рекомендации для учителей и учащихся, способствуя улучшению процесса чтения.

Ключевые слова: Интерактив, Мультимедиа, Обратная связь, Симуляция, Виртуальность, Моделирование, Академичность, Дислексия.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish hamda uni rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida katta e'tibor berib kelinmoqda. Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi sifati har qanday davlatning zamon talablariga hamohang ravishda innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi va muhim omil sanaladi. Fan, texnika va texnologiyaning tobora taraqqiy etib borayotgani ta'lim sohasidagi tegishli o'zgarishlarni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8- oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi



oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni qabul qilindi. Bu esa o’z navbatida pedagog kasbining yanada murakkablashuvi, mas’uliyati va vazifalarining ortishiga olib keladi. Chunki ommaviy ta’limning bugungi sharoitida yangi raqamli avlod bilan ishlash, ularni rivojlantirish, jahon talablariga mos qilib kasbga tayyorlash zamonaviy o’qituvchidan yuksak texnologik bilim, salohiyat va mehnatni talab qiladi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yana bir muammoni hal etish o’ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o’qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’limolish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol 4 ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”, – degan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi¹. Bugungi ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi va shiddatli axborot oqimi davrida XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo’lgan “Ta’lim texnologiyalari” fani mazkur muammoni hal etadi. Ommaviy ta’lim sharoitida ta’lim texnologiyalari – har bir bosqichi va har bir elementi jiddiy ishlab chiqilgan, asoslangan, loyihalashtirilgan, kafolatlanuvchi sifatli yakuniy natijaga mo’ljallangan pedagogik jarayonni tuzish va amalga oshirish imkoniyatini beradi.² Ta’limning yangi modelini amaliyotga tatbiq etish o’quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan bog’liq. Shuning uchun ham Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida “O’quv-tarbiyaviy jarayonni ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash” uning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ta’lim taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch – bu o’zida didaktik masalalar va ta’lim texnologiyalarini mujassamlashtirgan pedagogik tizim hisoblanadi. Ta’lim texnologiyasining muvaffaqiyatli loyihalaniishi va yakuniy natijaning kafolatlanishi o’qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasiga, ularni to’g’ri belgilash, tanlash va samarali qo’llay olishga bog’liqdir. Barchaga ma’lumki, zamonaviy ta’lim talabalar uchun informativ,

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni.



qiziqarli va maroqli bo‘lsa, kutilayotgan o‘qitish maqsadlariga erishish mumkin. Ta’lim oluvchilarni faqatgina davr talabiga javob bera oladigan faol o‘qitishusullari, shakllari, vositalarini qo‘llash, innovatsion yondashuv va hamkorlik orqali motivlashtirish mumkin. Shu sababli ham, ilg‘or pedagog olimlar, novator professor-o‘qituvchilar va amaliyotchilar ilmiy asoslangan ta’lim texnologiyalarini o‘z faoliyatlarida keng qo‘llashga intilmoqdalar. Milliy o‘quv dasturining maqsadi — ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va munosabatlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Shu bois olamga yangicha ko‘z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko‘zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Respublikamiz o‘qituvchi — pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas’uliyatli vazifadir.³

Shuni aytishimiz mumkinki, ta’lim sohasidagi yangiliklar ta’lim sifatini yanada rivojlantirish hamda kelajakda davlatimizning ravnaqiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan, yurtimizning bayrog‘ini yuksaklarga ko‘tara oladigan, har jihatdan bilimli va salohiyatli o‘quvchi yoshlarni tarbiyalash biz pedagoglarning burchidir. Buning uchun maktablarda dars faoliyati juda katta ahamiyat kasb etadi.

1-sinf va 2-sinf o‘quvchilarining o‘qish darslariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bir muncha qiyinchiliklar ko‘z oldimizga keladi. Ya’ni, o‘quvchiga o‘qish darslarida berilgan she’r, maqol, matn yoki hikoya bo‘ladimi, o‘qib ketishga qiynaladigan o‘quvchilar ham uchrab turadi. Bu jarayonda o‘qituvchidan mahorat talab etiladi. Darsga o‘quvchini qiziqtirib olish kerak bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida o‘qish samaradorligini oshirish uchun qo‘llaniladigan samarali usullar quyidagilardan iborat:

³ O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: «Sharq», 2001.

1. Interaktiv o‘qish modellaridan foydalanish: Samarali o‘qish darslari o‘quvchilarni faol ravishda jalb qiladigan interaktiv modellarni o‘z ichiga oladi. Bu o‘quvchilarni o‘z darajalariga moslashtirilgan kichik guruhlarda qo‘llab-quvvatlaydigan yo‘riqli o‘qish sessiyalarini o‘z ichiga oladi, bu esa maqsadli o‘qitish va darhol fikr-mulohaza berish imkonini yaratadi.

Quiz va sinovlar: O‘quvchilar dars davomida yoki so‘ngida qiziqarli va turli xil savollar bilan yuzma-yuz bo‘lishadi. Bu usul o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini sinab ko‘rishga yordam beradi.

Mavzuga oid o‘yinlar: O‘quvchilarga mavzuni o‘rgatish jarayonida o‘yinlar orqali bilimlarini oshirish imkonini beradi. Bu usul ularning e‘tiborini jalb qilish va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Multimedia vositalari: Videolar, animatsiyalar va slayd-shoular kabi vizual vositalardan foydalanish o‘quvchilarni mavzu bilan chuqurroq tanishtiradi va ularning tushunchalarini kengaytiradi.

Muammolarni hal qilish bo‘yicha faoliyatlar: Guruhli muammolarni hal qilish va muhokama qilish orqali o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadilar va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Feedback va fikr-mulohazalar: O‘quvchilar o‘zlarini qanday tutayotganliklari haqida muntazam ravishda fikr-mulohazalar olishlari mumkin. Bu ularga o‘zlarini qayerda yaxshilash kerakligini tushunishga yordam beradi.

Simulyatsiyalar va virtual tajribalar: Real hayotdagi tajribalarni virtual muhitda sinab ko‘rish orqali o‘quvchilar mavzuni yanada yaxshi tushunishlari mumkin. Interaktiv o‘qish modellaridan foydalanish o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun ham oson va foydali bo‘lishi mumkin, chunki bu usullar o‘qitish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

2. O‘rtoqlar yordamida o‘qitish: Har birining navbati bilan ovoz chiqarib kitob o‘qish va mazmuni haqida suhbatlashish kabi usullar o‘qish tezligi va

tushunishni yaxshilashga yordam beradi. Katta o‘quvchilar kichiklariga o‘qishni o‘rgatish orqali qiyin so‘zlarni talaffuz qilish va tushunishga yordam beradi. O‘rtoqlar yordamida o‘qish samaradorligini oshirish ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Guruhlar bilan o‘qish yoki o‘yinlar orqali ta’lim olish usullari o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga, ijodiy fikrlashga va o‘zaro hamkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.⁴

3. Turli sinflarning o‘quvchilarini juftlash: Yosh o‘quvchilarni katta sinflarning o‘quvchilari bilan juftlashtirish foydali bo‘ladi. Katta o‘quvchilar rahbarlik va etakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirsa, kichik o‘quvchilar esa shaxsiy e’tibor va yaxshi o‘quv modelini ko‘rishdan foyda ko‘radi. Bu usul o‘quvchilar o‘rtasida jamoa va hamdardlik tuyg‘usini ham rivojlantiradi.

4. Takroriy o‘qish va ko‘p modaliteta orqali o‘qish: O‘quvchilarning bir xil matnni turli sharoitlarda (sinfdozlari bilan, yakka holda) ko‘p marta o‘qishini rag‘batlantirish talaffuz va tushunishni yaxshilashga yordam beradi. Bu usul FORI (fluency-oriented reading instruction) deb ataladi va bu o‘quvchilarning materialni chuqurroq tushunishini ta’minlaydi.

Takroriy o‘qish va ko‘p modelitet orqali o‘qish o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun muhim usullardir. Ularning foydalari quyidagilar:

Takroriy o‘qish

Bilimlarni mustahkamlash: Takroriy o‘qish orqali o‘quvchilar o‘rgangan ma’lumotlarini yanada mustahkamlaydi, bu esa ularni eslab qolishga yordam beradi.

Uzoq muddatli xotira: Takroriy o‘qish yordamida ma’lumotlarni uzoq muddatli xotirada saqlash imkoniyati oshadi, chunki takrorlash vaqt o‘zgarishi bilan o‘qitilgan ma’lumotni yangilab turadi.

⁴ Ziyonet sayti



O‘qish jarayonini yaxshilash: Takroriy o‘qish orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini baholash va ularni yanada chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Xato va muammolarni aniqlash: Takrorlash jarayonida o‘quvchilar o‘z xatolarini ko‘rish va ularni to‘g‘rilash imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa o‘qish samaradorligini oshiradi.

Ko‘p modelitet orqali o‘qish

Turli o‘rganish uslublarini qo‘llash: Ko‘p modelitet o‘qitishda turli uslublarni (vizual, audial, kinestetik) qo‘llash o‘quvchilarning turli ehtiyojlariga javob beradi.

Qiziqishni oshirish: Turli o‘qish uslublari yordamida o‘quvchilar o‘qishga qiziqishlarini oshirishi mumkin, bu esa ularning motivatsiyasini kuchaytiradi.

Yanada chuqurroq tushunish: Har xil modelitet yordamida bir xil ma'lumotni o‘rganish o‘quvchilarga mavzuni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish: Ko‘p modelitet orqali o‘qishda guruhlarda ishlash va o‘zaro fikr almashish o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

5

Bu ikki usul o‘quvchilarning o‘qish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Ularni birlashtirish orqali o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilash mumkin.

5. Audiokitoblardan foydalanish: Audiokitoblarni o‘qish amaliyotiga qo‘shish, ayniqsa, o‘qish bilan qiynalayotgan o‘quvchilar yoki disleksiyaga ega bo‘lganlar uchun o‘qish aniqligi va motivatsiyasini oshirishda sezilarli darajada yordam beradi. Matnni tinglash va o‘qish birgalikda amalga oshirilganda, o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalari va umuman materialga bo‘lgan qiziqishlari ortadi.

⁵Psychological Science in the Public Interest.
Dunlosky, J., et al. (2013).

6. Akademik so‘z boyligini aniq o‘qitish: Akademik so‘z boyligini, jumladan, so‘zlarni dramatik tarzda ifodalash va vizuallardan foydalanib o‘rgatish o‘quvchilarga, ayniqsa, ingliz tilini o‘rganayotganlarga murakkab atamalarni yaxshi tushunish va eslab qolishga yordam beradi. O‘quvchilarning taraqqiyotini kuzatish va o‘qitishni moslashtirish uchun muntazam baholashlar ham juda muhimdir.

7. O‘quvchilarga kitob tanlashda erkinlik berish: O‘quvchilarga o‘qish uchun kitob tanlash erkinligini berish ularning qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi. Bu ularning qiziqish va tajribalariga mos keladigan kitoblar bilan ta‘minlash orqali o‘qishni yanada zavqli va mazmunli faoliyatga aylantiradi.

Ushbu usullar turli ta‘lim tizimlarida o‘z samaradorligini ko‘rsatgan va ularni kombinatsiya qilish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish samaradorligini oshirishda yordam beradi.

O‘rta maktab o‘quvchilarining o‘qish samaradorligini oshirish uchun quyidagi strategiyalar tavsiya etiladi:

O‘qish qobiliyatini oshirish: O‘qituvchilar vaqtli o‘qishlar o‘tkazib, o‘quvchilarning so‘zlarni tanib olish tezligini oshirishi mumkin. Bu usulda o‘quvchi ma‘lum vaqt ichida matnni ovoz chiqarib o‘qiydi va o‘z taraqqiyotini kuzatadi. O‘qituvchi ko‘nikmalarni mustahkamlash uchun mulohazalar bildirishi va kerakli joylarda yordam berishi mumkin.

O‘qish motivatsiyasini oshirish: O‘quvchilarga qiziqarli mavzularda kitoblar tanlashga imkon berish va ularni rag‘batlantiruvchi o‘qish faoliyatlariga jalb qilish muhim. Bu o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning o‘z-o‘ziga ishonchini kuchaytiradi.

Tushunchalarni mustahkamlash: Reciprocal teaching metodidan foydalanib, o‘qituvchilar o‘quvchilarga oldindan taxmin qilish, savollar berish, tushunmagan joylarni aniqlash va matnni xulosa qilish kabi strategiyalarni o‘rgatishi mumkin.

Bu usul o‘quvchilarni matnni chuqur tahlil qilishga undaydi va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ota-onalarni jalb qilish: Ota-onalar ham uyda o‘qish mashg‘ulotlarini o‘tkazib, o‘quvchilarning tushunish qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Ota-onalar farzandlari bilan birgalikda o‘qishlari va ular bilan o‘qiganlari haqida suhbatlashishlari mumkin.

Muayyan o‘quv strategiyalarini qo‘llash: Har bir o‘quvchi uchun mos o‘qish strategiyalarini tanlash va ularni mustahkamlash uchun ko‘nikmalar to‘plamini ishlab chiqish zarur. Bu o‘quvchilarga o‘zlari uchun mos keladigan usullardan foydalanish imkonini beradi va mustaqil o‘qish qobiliyatini oshiradi.

Bu strategiyalarni qo‘llash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish samaradorligini oshirish va ularda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quvchilarning o‘qish samaradorligini oshirish uchun bir qancha strategiyalarni amalga oshirish zarur. Darslarda o‘quvchilarni faol ishtirok etishiga imkon beruvchi interaktiv metodlar, o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlar va faoliyatlar, shuningdek, o‘qish jarayonida motivatsiyani oshirish muhimdir. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘qish materiallarini tanlashlari lozim. Ota-onalar bilan hamkorlik o‘qish jarayonini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘z farzandlarini o‘qishga rag‘batlantirishda yordam beradi. Umuman olganda, o‘qish samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuv va doimiy ravishda o‘zgaruvchan ta’lim metodlarini qo‘llash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.



2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: Sharq, 2001.
3. Sobirova M. Development of oral speech competence of students. <http://www.academicpublishers.org/> International journal of artificial intelligence (ISSN: 2692-5206) Volume 04, Issue 03, 2024. Published Date: - 04-06-2024.
4. Sobirova, M. (2023). Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology. Impact factor: 8,2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 3, Issue 4, April. 481-486-pages. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7827423>
5. Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
6. K.Qosimova va boshqalar “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent, 2009.
7. Sobirova, M. (2021). The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp.z o.o."iScience", 2021. Part 3 – 234 p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9634%20-%203%20%28web%29.pdf> стр. 98-105
8. Sobirova, M. (2020). Assimilation of human qualities during the process of working with text. International Scientific Journal “Theoretical & Applied Science” SOI: 1.1/TAS (<http://t-science.org/axiv> DOI/2020/12-92.html) (DOI:10.15863/TAS Published: 18.12.2020.
9. Sobirova,M.Y. (2019). About the history of speech culture and art of oratory. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80), 275-277. Retrieved from: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42657439>
10. Ziyonet sayti.
11. Psychological Science in the Public Interest. Dunlosky, J., et al. (2013).